

SSHBGR FLORASIDA TARQALGAN *Allium* L. TURKUMINING TAKSONOMIK TARKIBI VA KONSPEKTI

Minyanov Husniddin Rahmatillayevich

Termiz Davlat Universiteti tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 2-
bosqich magistranti

minyanovhusniddin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishi orqali SShBGR florasida tarqalgan Allium turkuming taksonomik tarkibi faqat mavjud gerbariy namunalari asosida tuzildi. Quyida har bir turning sistematikasi, dastlabki tavsifi chop etilgan manbasi, o'zbekcha nomi, uchrash balandlik mintaqasi, ekologiyasi, ahamiyati, davlatlar kesimida tarqalishi va SShBGR florasidan terilgan hamda TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Allium, SShBGR, flora, takson, TASH, kriptofit, kenja turkum, seksiya.*

ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ОПИСАНИЕ ВИДОВ *Allium* L., РАСПРОСТРАНЕННЫХ ВО ФЛОРЕ СШБГР

АННОТАЦИЯ

Исследование предоставляет таксономическую информацию о Allium, обнаруженном в флоре СШБГР. Таксономический состав основан только на гербарных образцах. Статья представляет систематическую классификацию каждого вида, источник первоначального описания, узбекское название, высотное распределение, экологию, важность, распространение в разных штатах и гербарные образцы, сохраненные в TASH.

Ключевые слова: *Allium, СШБГР, флора, таксон, ТАШ, криптофит, подрод, секция.*

TAXONOMIC COMPOSITION AND SYNOPSIS OF *Allium* L. SPECIES DISTRIBUTED IN THE FLORA OF SSHBGR

ANNOTATION

This article provides taxonomic information on the Allium, which is found in the flora of the SSHBGR. The taxonomic composition is only based on herbarium specimens. The article presents each species' systematic classification, the source of the initial description, the Uzbek name, altitude distribution, ecology, importance, distribution in different states, and herbarium specimens preserved in the TASH.

Key words: *Allium, SSHBGR, flora, taxon, TASH, cryptophyte, subgenus, section.*

Allium L. (Amaryllidaceae J.St.-Hil.) turkumi taksonomik jihatdan dunyodagi eng qiziqarli super polimorf turkumlardan biri bo'lib, hozirgi vaqtda 1000 dan ortiq turlari 15 kenja turkum, 85 ga yaqin seksiyalarga birlashgan (Friesen et al., 2006; Fritsch et al., 2010). Xozirgi vaqtda turkumning O'rta Osiyoda 224 turi (Xassanov 2008), O'zbekistonda esa 134 turi ma'lum (Sennikov 2017). Turkum vakillari quruq subtropiklardan boreal zonagacha bo'lgan golarktik mintaqada tarqalgan. Asosiy xilma-xillik markazi O'rta yer dengizi havzasidan Markaziy Osiyo va Pokistongacha hamda Shimoliy Amerikaning g'arbiy qismida joylashgan (Li et al. 2010). Mazkur turkumga mansub turlar piyoz va barglarining shakli, gulqo'rg'oning tuzilishi, xromosomalar soni hamda urug' po'sti hujayrasining tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi (Friesen, 1992, Zhou et al. 2007, Khassanov, 2018, Yusupov et al. 2022).

Allium turkumining o'rganilish tarixi Liu va boshqalar (2010), Fritsch (2016), Khassanov (2018), Yusupov va boshqalarning (2022) tadqiqot ishlarida batafsil yoritib berilgan. So'ngi yillarda Tojibayev va boshqalar (2014) tomonidan tuzilgan O'zbekiston hududini botanik-geografik rayonlashtirish sxemasiga asoslangan bir qator floristik tadqiqotlar amalga oshirildi va floralarning taksonomik tarkibi aniqlandi (Turginov 2017, Azimova 2018, Qodirov 2020, Achilova 2021, Abduraimov 2021). Floristik tadqiqotlar amalga oshirilgan rayonlardan biri Surxon-Sherobod botanik-

geografik rayoni (SShBGR) hisoblanadi. SShBGR Gʻarbiy Hisor okrugi tarkibidagi eng katta hududni egallaydi (Tojibayev va boshqalar 2014). Ushbu rayonning floristik tarkibi, areal tiplari boʻyicha taqsimlanishi, floraning qiyosiy va hayotiy shakllari boʻyicha tahlili N.T. Achilova (2021) tomonidan oʻrganilgan. Achilova N.T. maʼlumotlariga koʻra SShBGR florasida *Allium* turkumining 17 turi oʻsadi (2021). Ammo bizning 2021-2022 yillarda SShBGR hududida amalga oshirgan dala tadqiqotlarimiz va gerbariysi fondlarida (LE, MW, TASH, SAMDU) mavjud namunalarni tanqidiy koʻrib chiqishimiz natijasida, mazkur rayon florasida *Allium* turkumining 3 ta kenja turkum, 8 ta seksiyaga mansub 11 ta turi tarqalganligi aniqlandi.

SShBGR florasidagi *Allium* turlari soni qoʻshni floralarga qaraganda bir muncha kam, jumladan, Boysun botanik-geografik rayonida 36 tur (Turginov 2017), Surxon davlat qoʻriqxonasida 25 tur (Ibragimov 2009), Bobotogʻ botanik-geografik rayonida 26 tur (Poʻlatov, chop etish jarayonida) tarqalgan.

SShBGR florasida amalga oshirilgan floristik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ammo ushbu rayon florasidagi *Allium* turkumini oʻrganishga qaratilgan maqsadli tadqiqotlar hozirgacha amalga oshirilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi SShBGR florasidagi *Allium* turkumining roʻyhatini faqat mavjud gerbariylar asosida shakllantirish, turkum boʻyicha toʻplangan maʼlumotlarni umumlashtirish hamda har bir turning zamonaviy konspektini taqdim etishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

SShBGR florasida tarqalgan *Allium* turkumining taksonomik tarkibini aniqlashda “Флора Узбекистана” (Sennikov 2017) monografiyasidan, turlarning nomlarini yozishda Plants of the World Online (POWO) (www.powo.science.kew.org) platformasidan, turlarning dastlabki tavsifi chop etilgan manbasi International Plant Names Index (IPNI) (www.ipni.org) asosida, balandlik mintaqasi va ekologiyasi “Определителя растений Средней Азии” (Vvedenskiy 1971) hamda turlarning ahamiyati “Растительные ресурсы” monografiyalaridan foydalangan holda taqdim etildi.

Quyida har bir turning sistematikasi, dastlabki tavsifi chop etilgan manbasi, o‘zbekcha nomi, uchrash balandlik mintaqasi, ekologiyasi, ahamiyati, davlatlar kesimida tarqalishi va SShBGR florasidan terilgan hamda TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari keltirilgan.

NATIJAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Allium L., Sp. Pl. 1: 294 (1753).

Melanocrommyum (Webb & Berth.) Rouy kenja turkumi:

Kaloprason Koch. seksiyasi:

1. *Allium baissunense* Lipsky, in Acta Horti Petropolit. 18: 140 (1901). Boysun piyozi. Tog‘ oldi va pastki tog‘ mintaqalaridagi olajinsli, toshli va shag‘alli qiyaliklarda uchraydi. Manzarali tur. O‘zbekiston, Tojikiston. (13.V.1937, *Vvedenskiy*; 07.V.1930, *Bochansev Vvedenskiy 137*).

2. *Allium caspium* M.Bieb., Fl. Taur.-Caucas. 1: 265. 1808; 3: 260 (1819-1820).

Kaspiy piyozi. Kriptofit. Pomiroloy. Tog‘oldi, olajinsli tuproqlarda uchraydi. Manzarali, zaxarli. Afg‘oniston, Sharqiy Yevropa Rossiya, Eron, Qozog‘iston, Shimoliy Kavkaz, Pokiston, Janubiy Yevropa Russi, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston. (22.V.1927, *Vvedenskiy 54*; 30.IV.1928, *Vvedenskiy 333*; 17.V.1930, *Granitov 64*).

3. *Allium rhodanthum* Vved, Fl. Uzbekist.SSR 1. 464, 543 (1941). Qizilgulli piyoz. Ko‘p yillik o‘t (piyozli). Tekislik va tog‘oldi mintaqalardagi qumli va olajinsli tuproqda uchraydi. Manzarali hamda zaxarli tur. O‘zbekiston, Tojikiston. (13.V.1937, *Vvedenskiy*; 21.V.1940, *Arxireev 4*; 21.III.2020, *Achilova, Kurbanoyazova, Pulatov*).

Procerallium R.M. Fritsch seksiyasi:

4. *Allium stipitatum* Regel, in Acta Horti Petropolit. 7: 546 (1881). Poyasimon piyoz yoki Anzur piyoz. Daryo vohalaridagi mayda tuproqli yerlarda uchraydi. Tog‘larning o‘rta qismida tarqalgan. Manzarali va istemol qilinadigan tur. O‘zbekiston, Afg‘oniston, Eron, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Tojikiston,

Turkiya, Turkmaniston. (25.III.2022, *Turgenov, Pulatov, Juramurodov, Maxmudjadov*).

Allium kenja turkumi:

Multicaulia F.O. Khass. & Yengal. seksiyasi:

5. *Allium borszczowii* Regel, Trudy Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada 3(2): 74 (1875). Borshov piyozi. Tekislik va tog'oldi mintaqalarida hamda cho'llardagi qumlarda, qoldiq tog'larda, olajinsli tuproqlarda uchraydi. Manzarali tur. O'zbekiston, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Pokiston, Turkmaniston. (15.V.1941, *Gumoltskiy 54*; 30.IV.1969, *Taxtadjyan, Morozova 25*; 8.IV.2019, *Xasanov 249*; 08.IV.2019 *Achilova*).

Costulatae F.O. Khass. & Yengal. seksiyasi:

6. *Allium filidens* Regel, Trudy Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada 3(2): 174 (1875). Iptishli piyoz. Tekislik, tog'oldi hamda pastki tog' mintaqalardagi toshli, shag'alli, olajinsli tuproqda uchraydi. Manzarali tur. O'zbekiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston (3.VII.1927, *Vvedenskiy 520*).

7. *Allium margaritifera* Vved. Opred. Rast. Sred. Azii 2: 316 (1971). Durdona piyoz. Tog'oldi va quyi tog' mintaqalaridagi olajinsli tuproqda uchraydi. Manzarali tur. O'zbekiston, Tojikiston. (26.VI.1934, *Demurina 97*).

Avulsa F.O. Khass. seksiyasi:

8. *Allium griffithianum* Bioss, Diagn. Pl. Orient., ser. 2, 4: 117 (1859). Griffit piyozi. Tekislik, quyi va past tog' mintaqalaridagi gilli va mayda tuproqli hududlarda uchraydi. Manzarali tur. O'zbekiston, Afg'oniston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, G'arbiy Himolay. (22.V.1927, *Vvedenskiy 53, 54*; 25.V.1937, *Lepeshkin*; 13.IV.1941, *Popova 45*).

Crystallina F.O. Khass. & Yengal. seksiyasi:

9. *Allium nikolai* F.O. Khass. et Achilova, Fl. As. Med. 11: 498 (2016). Nikolay piyozi. Tog' oldi va pastki tog' mintaqalaridagi olajinsli tuproqlarda uchraydi. Manzarali tur. O'zbekiston (26.V.2019, *Achilova*).

Coerulea (Omelczuk) F.O. Khass. seksiyasi:

10. *Allium ophiophyllum* Vved, Trudy Sredne-Aziatsk. Gosud. Univ., Ser. 8b, Bot. 3: 8 (1928). Ilonbarg piyoz. Ko'p yillik o't (piyozli). Kriptofit. Janubi g'arbiy Pomiroloy. Tog' oldi, tekislik, olajinsli, qumli tuproqlarda uchraydi. Manzarali. O'zbekiston, Turkmaniston. (Nabiev, Shermatov, Kazakbaev 1972,269, 22.V.1927, *Vvedenskiy* 78; 30.IV.1928, *Vvedenskiy*; 05.IV.1931, *Lixacheva*; 01.IV.2021, *Tajeddinova, Jabborov, Rahmatov, Qurbaniyazova*; 2020 *Achilova*).

Reticulato bulbosa (Kamelin) N. Friesen kenja turkumi:

Campanulata Kamelin. seksiyasi:

11. *Allium drepanophyllum* Vved, Byull. Sredne-Aziatsk. Gosud. Univ. 19:120 (1934). O'roq barg piyoz. Ko'p yillik o't (piyozli). Kriptofit. G'arbiy Tyonshon Pomiroloy. Tog'oldi va quyi tog', mayda tuproqli. shag'alli, olajinsli tuproqli hududlarda uchraydi. Manzarali. O'zbekiston, Tojikiston. (04.V.1930, *Bochantsev, Vvedenskiy* 91).

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishi orqali SShBGR florasida tarqalgan *Allium* turkumining taksonomik tarkibi faqat mavjud gerbariy namunalari asosida tuzildi. Natijada Achilova N.T. tomonidan keltirilgan 7 tur: *Allium dolichomischum* Vved, *Allium gypsaceum* Popov & Vved *Allium fritschii* F.O.Khass, *Allium giganteum* Regel, *Allium protensum* Wendelbo, *Allium turcomanicum* Regel, *Allium verticillatum* Regel gerbariy namunalari bilan tasdiqlanmaganligi uchun flora tarkibidagi turlar ro'yxatidan chiqarildi va so'ngi dala tadqiqotlari natijasida hudud uchun yangi tur *Allium stipitatum* Regel aniqlanib, gerbariy namunalari olindi. Yangilangan ro'yxatga ko'ra mazkur florada 3 kenja turkum, 8 seksiyaga mansub 11 tur uchraydi. Ulardan *Allium nikolai* turi O'zbekistonda tor tarqalish arealiga ega bo'lgan endemik tur hisoblanadi. SShBGR florasida *Allium* turlarining qo'shni floralarga qaraganda nisbatdan kam sondagi turlar tarkibi ushbu hududning asosiy qismi urbanizatsiyalashganligi va hududning tabiiy geografik reliefi bilan izohlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Friesen N, Fritsch RM, Blattner FR. 2006. Phylogeny and new intrageneric classification of *Allium* (Alliaceae) based on nuclear ribosomal DNA ITS sequences. *Aliso* 22: 372–395
2. Fritsch RM, Blattner FR, Gurushidze M. 2010. New classification of *Allium* L. subg. *Melanocrommyum* (Webb & Berthel.) Rouy (Alliaceae) based on molecular and morphological characters. *Phyton* 49: 145–220.
3. Li, Q. Q., Zhou, S. D., He, X. J., Yu, Y., Zhang, Y. C., & Wei, X. Q. (2010). Phylogeny and biogeography of *Allium* (Amaryllidaceae: Allieae) based on nuclear ribosomal internal transcribed spacer and chloroplast rps16 sequences, focusing on the inclusion of species endemic to China. *Annals of botany*, 106(5), 709-733.
4. Khassanov, F. O. (2018). Taxonomical and ethnobotanical aspects of *Allium* species from Middle Asia with particular reference to subgenus *Allium*. In *The Allium Genomes* (pp. 11-21). Springer, Cham.
5. Zhou SD, He XJ, Yu Y, Xu JM. Karyotype studies on twenty-one populations of eight species in *Allium* section *Rhiziridium*, *Acta Phytotaxonomica Sinica*, 2007, vol. 45 (pg. 207-216)
6. Yusupov, Z., Ergashov, I., Volis, S., Makhmudjanov, D., Dekhkonov, D., Khassanov, F., ... & Sun, H. (2022). Seed macro-and micromorphology in *Allium* (Amaryllidaceae) and its phylogenetic significance. *Annals of Botany*, 129(7), 869-911.
7. Fritsch RM. 2016. A preliminary review of *Allium* subg. *Melanocrommyum* in Central Asia. Gatersleben: Leibniz-Institut für Pflanzengenetik und Kulturpflanzenforschung Gatersleben.
8. “Флора Узбекистана” (Sennikov 2017).
9. “Определителя растений Средней Азии” (Vvedenskiy 1971).
10. Тургинов О.Т. Бойсун ботаник-географик райони флораси: Дис. ...канд биол наук.– Тошкент, 2017. – 120 б.
11. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского заповедника (хребет Кугитанг): Диссер. канд. биол. наук. – Ташкент: 2010. – 160 б.
12. Қодиров У.Х. Ургут ботаник-географик райони флораси Автореф. Дисс...PhD доктор – Тошкент 2020.